

# **PEDAGOGIK MAHORAT**

**1**  
**2024**



ISSN 2181-6883

# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**1-son (2024-yil, yanvar)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2024**

20.	<b>SHERNAYEVA Shahnoza</b> <i>Aqmirzayevna</i>	Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayorlash va uni rivojlantirish muammolari	106
21.	<b>SIDIQOVA Dilora Shavkatovna</b>	Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida masofaviy ta‘lim sharoitida talabalarning kasbiy-metodik tayyorgarlik tizimi	110
22.	<b>SUYUNOV Samar</b> <i>Samandarovich</i>	Bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarining kompetentligini zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish	114
23.	<b>ZOKIROVA Dilnoza</b> <i>Nematillaevna</i>	Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorlashning metodik modeli	119
24.	<b>TO‘G‘IZBOYEV Faxriddin</b> <i>Ulashovich</i>	Infografik axborotlarning rivojlanish tendensiyalari	127
25.	<b>TURAYEVA Dilafruz</b> <i>Rustamboyevna</i>	“O‘qituvchi-o‘quvchi” hamkorligi tizimida umumta‘lim pedagoglari faoliyatining metodologik jihatlari	131
26.	<b>TURSUNOVA Dilnoza</b> <i>Adhamjon qizi</i>	O‘quvchilarning tarixiy va ma‘naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	137
27.	<b>TUXTAYEV Soyib Safarovich</b>	Semiotik-situatsion yondashuv asosida talabalarning kommunikativ ta‘limini pedagogik boshqarish nazariyasi	142
28.	<b>UMAROVA Feruzabonu Bobir</b> <i>qizi</i>	Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish	147
29.	<b>XALIQOVA Gulnora</b> <i>To‘xtamurodovna</i>	Zamonaviy pedagog kasbiy kompetensiyasining rivojlantirish omillari	151
30.	<b>ФАЙЗИЕВ Зоҳиддин</b> <i>Ҳасанбоевич</i>	Бошқарув фаолиятида стресс даражасини ўрганишга йўналтирилган ижтимоий-психологик сўровнома (ИПС) ва унинг эмпирик натижалари	156
31.	<b>MAXMUDOVA Zulfiya</b> <i>Mexmonovna,</i> <b>SAMADOVA Nilufar Nodir qizi</b>	Social-psychological diagnostics of professional competence of protective service staff	161
32.	<b>RAXIMOVA Moxinora</b> <i>Xoshimjanovna</i>	Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va oila munosabatlarini tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik amaliyoti	170
33.	<b>KURBANOVA Mavludaxon</b> <i>Ibaydullayevna</i>	Zamonaviy ta‘lim jarayonida dars samaradorligini ta‘minlashda o‘qituvchining pedagogik mahoratiga qo‘yilgan talablar	174
34.	<b>BAXTIYOROVA Sobiraxon</b> <i>Ixtiyor qizi</i>	Oliy ta‘lim muassasalarida mutaxassislik fanlarni o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish	179
35.	<b>BAHRONOVA Shaxlo Islom qizi</b>	Oliy ta‘limda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini va kreativligini shakllantirishda dasturlashtirilgan vositalarning o‘rni	183
<b>MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM</b>			
36.	<b>ABDUFATTOYEVA Gulazzam</b> <i>Qobiljon qizi</i>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatish asosida kreativ sifatlarini shakllantirishda ota-ona va o‘qituvchining o‘rni	187
37.	<b>AHMEDOVA Gulnoza,</b> <b>YUSUPOVA Firuza,</b> <b>ABDURAHMONOVA Mohidil</b>	Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishda tabiat markazining ahamiyati	191
38.	<b>ELIBAYEVA Lola</b> <i>Sulaymonovna</i>	Boshlang‘ich sinflarda bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar faolligini oshirish yo‘llari	196
39.	<b>HAYITOV Umidjon Hamidovich</b>	Boshlang‘ich sinf darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish	200

## BOSHLANG‘ICH TA‘LIM YO‘NALISHIDA MASOFAVIY TA‘LIM SHAROITIDA TALABALARNING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIK TIZIMI

*Sidiqova Dilara Shavkatovna,*

*Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
d.s.sidiqova@buxdu.uz*

*Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim yo'nalishida masofaviy ta'lim sharoitida talabalarning kasbiy-metodik tayyorgarlik tizimi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Masofaviy ta'lim sharoitida talabalarda kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, talabalarni zararli axborotlar xurujidan muhofaza qilishning innovatsion modellarini ishlab chiqish, bo'lajak pedagoglarning kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.*

**Kalit so'zlar:** kasbiy kompetentlik, ilmiy-metodik faoliyat, ko'nikma, malaka, bilish kompetensiya, axborot resurs markazi, tadqiqotchilik ko'nikmasi, ko'zgaqariladigan vositalar.

## СИСТЕМА ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ОБУЧАЮЩИХСЯ НА ДИСТАНЦИОННОМ ОБРАЗОВАНИИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

*В данной статье представлена информация о профессионально-методической системе подготовки учащихся при дистанционном обучении в системе начального образования. Важно совершенствовать технологии формирования профессиональной компетентности студентов в условиях дистанционного образования. Также большое значение имеет разработка инновационных моделей защиты обучающихся от нападения вредоносной информации, развитие компетентности будущих педагогов.*

**Ключевые слова:** профессиональная компетентность, научно-методическая деятельность, умение, компетентность, познавательная компетентность, информационно-ресурсный центр, исследовательские навыки, оптические средства.

## SYSTEM OF PROFESSIONAL-METHODICAL TRAINING OF STUDENTS IN DISTANCE EDUCATION IN PRIMARY EDUCATION

*This article provides information about the professional-methodical training system of students in distance education in primary education. It is important to improve the technologies of formation of professional competence of students in the conditions of distance education. Also, development of innovative models of protection of students from the attack of harmful information, development of competence of future pedagogues is of great importance.*

**Key words:** professional competence, scientific-methodical activity, skill, competence, cognitive competence, information resource center, research skills, optical tools.

**Kirish.** Dunyoda oliy ta'lim muassasalarida yoshlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirish, ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ularning har bir faoliyat turiga mustaqil ilmiy-ijodiy yondashishi, olingan yangiliklarni amalda tatbiq eta bilish kompetensiyalarini shakllantirish, kompetentli kadr sifatida ilmiy-metodik faoliyatga tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan muammolarni yechish uchun yaratiladigan sharoitlarni tahlil qilishda, ijodiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish zarur. Bu xususiyatlarning birinchisi ijodiy qobiliyat ta'lim oluvchi shaxsi, motivlari, shaxsiy maqsadi bilan bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Bu holatda, agar, topshiriq ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga doir bo'lib, ta'lim oluvchini ijodiy izlanishga undasa, natijaga erishiladi. Bu esa qobiliyatli ta'lim oluvchiga yechimni izlab topish, natijani boshqa vaziyatga olib o'tib, o'zi uchun yangilik izlashga imkon beradi, o'rtacha o'zlashtiruvchi ta'lim oluvchilarning ijodkorligini oshiradi, ular nostandart masalalarni bosqichma-bosqich yechishga kirishadi hamda ta'lim oluvchi har safar o'zi uchun qandaydir yangilik yarata oladi. Shu tariqa, har bir ta'lim oluvchi o'z qobiliyatlari darajasida ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.

Zamonaviy ijodkor o'qituvchi pedagogik faoliyatning reproduktiv (esda qolgan narsani tasvirlamoq) usuli va ijodkorlikdan birini tanlashda nafaqat o'zligini, balki hayotiy maqsadlarini ham ro'yobga chiqaradi.



U o‘zini sifat jihatidan o‘zgartiradi, psixologik to‘siqlarni yengadi, kasbiy ahamiyatli sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini qidiradi, o‘z pedagogik konsepsiyasini ishlab chiqadi. Umuman olganda, o‘qituvchining pedagogik faoliyati uchun, birinchidan, innovatsion yo‘naltirilganlik, ikkinchidan, o‘z ishiga ijodkorona yondoshuv, individuallik kabi xususiyatlari juda muhimdir. Ijodkor o‘qituvchi o‘z-o‘zini takomillashtirmay turib, individuallikni rivojlantirmay, kasbiy kompetentligini shakllantirmasdan kasbiy faoliyatda yuqori mavqega erishish mumkin emasligini to‘g‘ri anglab etadi. Shu sababli, kasbiy zarurat bo‘lgan sifatlarini hayotiy maqsad sifatida rivojlantirmay turib, yangi texnologiyalarni egallashi mumkin emas. Aynan ushbu ikki yo‘nalishni pedagogning ijodiy individualligining ko‘rsatkichi sifatida qabul qilish mumkin. O‘qituvchining pedagogik uslubi - bu shaxs tomonidan o‘z individualligini kasbiy faoliyat shart-sharoitlarini uyg‘unlashtirish tizimi, shaxs ijodkorligining manbayi va ijodiy faoliyat natijasi ko‘rinishida o‘zligini namoyon qilish vositasidir [6].

**Muhokamalar.** O‘qituvchining individualligida psixologik hamda shaxsiy jihatni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ularning pedagogik faoliyati umumiy va kasbiy qobiliyatlarning, shuningdek, kasbiy motivatsiyaning namoyon bo‘lish darajasi bilan belgilanadi. Yetarli darajada rivojlangan qobiliyatlar, maqsadlar, ehtiyojlar doirasi qanchalik keng bo‘lsa, o‘qituvchining kasbiy mahorat darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

O‘qituvchining kasbiy faoliyatida rivojlanishni ta‘minlovchi asosiy ziddiyat inson qobiliyatlari hamda pedagogik faoliyat talablari o‘rtasidagi tafovut bilan belgilanadi. Pedagogik jarayonda yuzaga keluvchi ziddiyatlarni har bir o‘qituvchi o‘z imkoniyatlari va qobiliyatlari darajasida hal qiladi. Bu faoliyat o‘qituvchining individual uslubini belgilab beradi.

O‘qituvchida o‘z-o‘zini boshqarish, qat‘iylilik, jur‘atlik, jasurlik, atrofdagi insonlarga hurmat va e‘tibor, kamchiliklarini his qilgan holda o‘z imkoniyatlariga ishonch, faoliyatini baholashda haqqoniylik, kuchli iroda, o‘z kuch-quvvatini maqsadli yo‘naltira olish, faoliyat va belgilangan vazifalarni amalga oshirish yo‘lida imkoniyatlarini jamlay olish, belgilangan maqsadni amalga oshirishda faoliyatini to‘g‘ri boshqarib borish, aqliy faollik va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish, shaxsni harakatga keltiruvchi kuch hamda ijtimoiy olam bilan o‘z imkoniyatlarini qiyoslay olish sifatlariga ega bo‘lsagina, yuksak kasbiy mahorat darajasiga erisha olishi mumkin.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yuksak kasbiy mahoratini takomillashtirishda foydalaniladigan mustaqil tadqiqotchilik tamoyilini shunday tashkil qilish kerakki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar o‘zlari o‘rganayotgan fanlarda qo‘llaniladigan asosiy usullari bilan tanishadilar. O‘zlari uchun qulay bo‘lgan tadqiqotchilik metodlari va usullarini o‘zlashtiradilar. Natijada, yangi bilimlar bazasini mustaqil egallash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar [1].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tadqiqotchilik yo‘nalishiga yo‘naltirishda shunday imkoniyatlar beriladiki, bu imkoniyatlardan o‘zlarining mustaqilligi, faolligi va ijodkorligini ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ilmiy izlanish va mustaqil tadqiqotchilikni tashkil etish uch bosqichdan iborat:

1. Dastlabki bosqich.
2. Ilmiy-nazariy va eksperimental bosqich.
3. Ishlab chiqarish yoki o‘quv amaliyoti jarayonida izlanish-tadqiqotchilik ishlarini bajarish bosqichi.

Endi ushbu bosqichlarning har biriga qisqacha tavsif berib o‘tamiz.

1. Dastlabki bosqich. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar bajariladi: axborot resurs markazi (ARM)da adabiyotlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy-ommabop xorij adabiyotlar bilan ishlash; kerakli manbalarni izlab topish; kompyuter texnologiyalari va internet bilan ishlash; elektron darsliklar, axborotning turli xil ko‘rinishlari-grafik tasvirlar, chizma jadvallar; ofis dastur muharrirlari bilan ishlash; tadqiqot ishining predmet-obyektini aniqlay bilish; tadqiqot ishining mazmun-maqsadini bilish va tushunish; masalani oqilona qo‘ya bilish; o‘quv fanlarini o‘rganishda izlanish-tadqiqotchilik xarakteridagi nazariy tadqiqotlarni o‘tkazish; amaliy masalalarni yechish, nazariy tadqiqotlarni bog‘lash; bajarilgan tadqiqotlar bo‘yicha asoslangan va daliliy ma‘lumotlar hamda xulosalar keltirish; tadqiqot natijalarini tanqidiy tahlil qilish va asoslash.

Izlanish-tadqiqotchilik yo‘nalishining ushbu bosqichi hamma uchun umumiy va zaruriydir. Shu bois, ta‘lim jarayonida ushbu bosqichga sekin-asta deyarli barcha talabalarni jalb etish lozim.

2. Ilmiy-nazariy va eksperimental bosqich quyidagilarni anglatadi: tadqiqotchilik laboratoriyasida eksperimental ishlarni tashkil etish, ilmiy to‘garaklarda ishtirok etish, ilmiy rahbar bilan tadqiqot yo‘nalishini faol hamkorlikda muhokama qilish, ilmiy munozaralarda ishtirok etish, turli darajadagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma‘ruzalar va xabarlar bilan chiqish, ko‘rik-tanlovlarda ilmiy ishlarni taqdim etish, ko‘rgazmalarda eksponatlarni taqdim etish.

Izlanish-tadqiqotchilik ishining ikkinchi bosqichi darsdan tashqari vaqtda amalga oshiriladi va birinchi bosqichdan ko‘p jihatdan farq qiladi. Mohiyatiga ko‘ra, birinchi bosqich ancha murakkab bo‘lgan ikkinchi bosqichni samarali davom ettirish uchun tayyorlanish hisoblanadi, xolos. Ikkinchi bosqichda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tadqiqotchilik xarakteridagi quyidagi ko‘nikma va malakalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi:

- o‘quv va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash;
- amaliy dasturlar paketlari bilan ishlash;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash;
- kompyuter tarmog‘ida “Internet” bilan ishlash;
- eksperimentni o‘tkazish metodikasi bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar yig‘ish;
- eksperiment o‘tkazish va natijalarni qayta ishlash;
- eksperiment ma’lumotlarini matematik va statistik qayta ishlash bo‘yicha dastlabki ma’lumotlarni

bilish;

- tadqiqot natijalarini tahlil qilish;
- eksperiment natijalari bo‘yicha mulohaza va xulosalar qilish;
- tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish;
- ilmiy konferensiyalari, ilmiy to‘garaklar yig‘ilishlarida ma’ruzalar va umumlashtirishlar bilan chiqishlar qilish.

3. Ishlab chiqarish yoki o‘quv amaliyoti jarayonida izlanish-tadqiqotchilik ishlarini bajarish. Bu bosqichda izlanish-tadqiqotchilik ishi ishlab chiqarish sharoitida ko‘p bosqichli jarayonni o‘z ishiga qamrab oladi. Bunda tadqiqot natijalari bevosita ishlab chiqarishga tatbiq etilishi mumkin. Ishlab chiqarish sharoitida tadqiqotning ahamiyati va natijaviyligi juda ham muhimdir. Bu ta’lim, tadqiqot va ishlab chiqarish jarayonlarining yaqinlashishiga imkon beradi. Shuni ham alohida eslatib o‘tish joizki, bitiruvchi talabalarning bunday ishtiroki dasturdagi boshqa yuklamalar tufayli hozirgi sharoitda ancha cheklangan.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishni quyidagi yo‘nalishda tashkil etish mumkin:

- o‘quv fanlari bo‘yicha ma’ruzalar o‘qish;
- laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish;
- bitiruv malakaviy, pedagogik va texnologik amaliyot ishlarini tayyorlash;
- darsdan tashqari mustaqil ishlarni bajarish;
- darsdan tashqari qo‘shimcha mashg‘ulotlar (referatlar va kurs ishlarini bajarish, to‘garak ishlari, loyihalar).

Talabalar bilan o‘tkazilgan suhbatlardan ma’lum bo‘ldiki, ular tadqiqotchilik jarayoni, tadqiqotlarni o‘tkazish texnologiyalari haqida bilim egallashni istashadi va ko‘nikmalarining kundalik hayotda ham, kasbiy faoliyatda ham foydali ekanligiga ishonishadi.

Talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarining shakllanganligi darajasini aniqlash maqsadida biz ularga qiyinlik darajasi ikki xil bo‘lgan topshiriqlarni yechishni taklif etdik. Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, barcha talabalar birinchi darajadagi qiyin tadqiqot topshiriqlarini bajardilar. Tajriba ishida ishtirok etganlarning ikkidan biri qiyinchilik darajasi ikkinchi bo‘lgan masalalarni ham bajara oldilar. Talabalardan olgan natijalarni tahlil qilish asnosida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, tadqiqotchilik ko‘nikmalarining ma’lum darajada shakllanganligini ko‘rsatdi.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarida tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagilarga tayaniladi: tushuntirib berishning oddiyliigi; o‘quv ma’lumotlarni o‘zlashtirishning osonligi va kam vaqt oralig‘ida o‘zlashtirish imkoniyati. Talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning samaradorligi, albatta, olingan bilimlarni amaliy qo‘llash bilan uzviy bog‘liq.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog‘liq tadqiqot muammolarini o‘quv jarayoniga kiritish amaliy jihatdan muhimdir. O‘qitishning hayotiy muammolar bilan bog‘liqligi va olingan natijalarni ishlab chiqarishda tatbiq etishi bo‘lajak o‘qituvchilarda sohasidagi vazifalarni vijdonan bajarish mas’uliyatni shakllantiradi.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarida bo‘lgan birinchi talab – unda pedagogik qobiliyatning mavjudligidir. Chunki pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati ko‘p hollarda pedagog qobiliyatiga bog‘liq [2].

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarida faoliyatini, asosan, aqliy mehnat, o‘qitish, ilmiy ijodkorlik va tadqiqot ishlari tashkil qiladi. Pedagoglar pedagogik g‘oyalarni yaxshi tushunish, o‘z fikrlarini mustaqil bayon etish, kutilmagan muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilish, tasavvurlar, predmetlar, obyektlar, hodisa va jarayonlarni farqlash qobiliyatlariga ega bo‘ladilar. Ularning natijasi o‘laroq pedagoglarda intellektual qobiliyat shakllanadi.

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalarida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda OTMning moddiy-texnik imkoniyati katta ahamiyatga ega.

Ular qatoriga eng birinchi navbatda quyidagilarni kiritish mumkin: ko‘rgazmali vositalar, o‘qitishning texnik hamda masofali ta‘lim vositalari.

1. Ko‘rgazmali vositalar:

Zamonaviy narsalarning tashqi ko‘rinishi va tadrijiy rivojlanishi bilan solishtirish; hodisa yoki jarayonlar xususiyatlarini taqqoslash, ulardagi o‘zgarishlar haqida tasavvurga ega bo‘lish, mahsulot ishlab chiqarish jarayonini loyihalash, tayyorlash va undan foydalanish bosqichlarini ko‘rsatish haqida tasavvurlarni shakllantirish.

2. O‘qitishning texnik vositalari:

O‘quv – ko‘rgazmali vositalardan foydalanish, kinofilmlar, videofilmlar, multimedialar, slaydlar taqdimoti nazariy ma‘lumotlarni tushuntirish vaqtini sezilarli qisqartiradi, talabalar oldiga vazifalarini aniq qo‘yish imkoniyatini beradi. Talabalarni muammolarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishga o‘rgatishi lozim. O‘qitishning texnik vositalari yordamida talabalarda kuzatish va fikrlash ko‘nikmasi shakllanadi. Ular tadqiqot ishlarini o‘tkazish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

3. Masofali ta‘lim resurslari. Talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda ba‘zi qiyinchiliklarga duch kelishlari tabiiy holdir. Bular: o‘quv xonalari va laboratoriyalarda texnikalarning ma‘nan eskirganligi; mashg‘ulotlar uchun ilmiy adabiyotlarning kamligi; talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishga oid ilmiy-nazariy va metodik ta‘minotning yetarlicha yaratilmaganligi [3].

Sohada olib borilayotgan islohotlar qatoriga ba‘zi kamchiliklarga e‘tibor qaratish lozimdir, talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun hech qanday qo‘shimcha mablag‘ ajratilmaydi. Holbuki, talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun motivatsiya zarur.

Talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz:

- ayni mavzu bo‘yicha doimiy ravishda tajriba almashish, suhbatlar, munozaralar o‘tkazish;
- ta‘lim muassasalarining ishlab chiqarish bilan aloqasini faollashtirish;
- iqtidorli talabalarni qo‘llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqish;
- talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha doimiy ravishda ko‘rgazmalar tashkil etish;
- talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun xorij va mamlakatimizda olib borilayotgan tadqiqot ishlari bilan yaqindan tanishib borishi;
- talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha o‘quv seminarlar, yosh tadqiqotchi olimlar bilan uchrashuvlar tashkil qilish.

**Xulosa.** Yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan muammolarni chuqur o‘rganish, sohada olib borilayotgan islohotlarni tizimli yo‘lga qo‘yish orqali talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishni faollashtiradi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish tizimida tadqiqotchilik va izlanuvchanlik qobiliyatiga ega pedagogik kadrlarni tayyorlash oliy ta‘lim tizimida dolzarb masalalardan ekanligi, tadqiqotchini tayyorlashning bugungi kundagi imkoniyatlari, kamchiliklari va kelajakda talabalarni ilmiy tadqiqotchilik faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun nimalarga e‘tibor qaratish zarurligi haqida batafsil ma‘lumotlar bayon qilingan.

#### Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida kompetentlik // Mehnat va kasb ta‘limi o‘qituvchilari kasbiy kompetentligini ta‘minlashning integrativ texnologiyalari: respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.–Toshkent:TDRU, 2010.
2. Asqarov I.B. Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishning zamonaviy masalalari // Современное образование (Uzbekistan). 2017. №4.
3. Turmatov J.R. O‘quvchilar tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishga bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchisi tayyorgarligini shakllantirish jarayonini modellashtirish. // «Pedagogik mahorat» nazariy va ilmiy-metodik jurnali. Buxoro: BuxDU, 2012, 2-son.
4. Sidikova S. D. (2021). Theoretical and didactic principles of distance learning. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(1), 541-548.
5. Sidiqova D.Sh. Talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari // Ta‘lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy-metodik jurnal. Buxoro. 2023-yil 5-son 245-248-b.
6. <http://uza.uz/>